

SHAXS ESTETIK KAMOLOTIDA MUSIQA MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI

MECHANISMS FOR ENHANCING MUSIC CULTURE IN THE AESTHETIC DEVELOPMENT OF THE INDIVIDUAL

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ЭСТЕТИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ

Ilmiy rahbar: Namozova Diloromxon Tursunovna

Farg'ona Davlat Universiteti dotsenti

Abduraimova Barchinoy Demir qizi

Farg'ona Davlat Universiteti

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa madaniyatining shaxs estetik kamolotidagi o'rni va uni yuksaltirishning samarali mexanizmlari tahlil qilinadi. Musiqa vositasida estetik didni shakllantirish, ma'naviy tarbiya berish, shaxsiy ong va tafakkurni rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lif va tarbiya jarayonida musiqa madaniyatini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi metod va yondashuvlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, estetik kamolot, tarbiya, shaxs, ong, did, musiqa ta'lifi, madaniy rivojlanish

Abstract: This article explores the role of musical culture in the aesthetic development of an individual and analyzes effective mechanisms for its enhancement. It examines how music contributes to the formation of aesthetic taste, spiritual education, and the development of personal consciousness and thinking. The paper also highlights methods and approaches that promote a deeper integration of musical culture into educational and upbringing processes.

Keywords: musical culture, aesthetic development, upbringing, personality, consciousness, taste, music education, cultural development

Аннотация: В данной статье рассматривается роль музыкальной культуры в эстетическом становлении личности и анализируются эффективные механизмы её развития. Освещается значение музыки в формировании эстетического вкуса, духовного воспитания, развития сознания и мышления личности. Также представлены методы и подходы, способствующие углублению музыкальной культуры в образовательных и воспитательных процессах.

Ключевые слова: музыкальная культура, эстетическое развитие, воспитание, личность, сознание, вкус, музыкальное образование, культурное развитие

Kirish

Har bir insonning ruhiy olami, dunyoqarashi va hayotga bo‘lgan munosabati turli omillar ta’sirida shakllanadi. Ularning ichida estetik tarbiya — ya’ni go‘zallikni ko‘ra olish, his eta bilish va undan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirish — alohida o‘rin tutadi. Bunday tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yishda san’at, ayniqsa musiqa muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Musiqa inson qalbiga bevosita ta’sir etib, uning ichki dunyosini uyg‘otadi, ruhiy muvozanatini mustahkamlaydi va estetik his-tuyg‘ularni boyitadi.

Bugungi kunda yoshlarning estetik kamoloti masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va madaniy muammo sifatida ham kun tartibiga chiqmoqda. Shaxsda estetik did va musiqiy madaniyatni shakllantirish esa uning ma’naviy-axloqiy yetukligiga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, musiqa madaniyatini yuksaltirish orqali estetik tarbiyani chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Ushbu maqolada aynan shu masala — ya’ni musiqa madaniyatining shaxs estetik kamolotiga ta’siri va bu jarayonda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy va nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Har bir inson musiqa tinglaganida qalbida nimadir o‘zgaradi. Ba’zida birligina kuy butun kunimizga ta’sir etadi, ruhiyatimizni ko‘taradi yoki yuragimizdagi og‘riqni yengillashtiradi. Musiqa shunchaki tovushlar to‘plami emas — u his-tuyg‘ular, kechinmalar, hayotiy tajribalar ifodasidir. Shuning uchun ham estetik tarbiyada uning o‘rni beqiyosdir.

San’at estetikaning obyekti sifatida o‘ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlar bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Shunga ko‘ra, uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San’at hayotni in’ikos ettirar ekan, insonning o‘zini o‘ziga ko‘rsatuvchi ulkan ko‘zgu vazifasini o’taydi. U insonni o’rgatadi, da’vat etadi, go‘zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san’atning ko‘makchisi, yetakchisi hisoblanadi.¹

Yosh bolalar hali dunyoni to‘liq tushunib ulgurmagan bo‘lsa-da, go‘zallikni yurakdan his qila oladi. Ayniqsa, musiqaga qiziqishi bor bola atrofdagi tovushlarni boshqacha qabul qiladi. U har bir ohangdan ma’no izlaydi, kuylardan zavqlanadi. Shu paytdan boshlab musiqiy didni shakllantirish, bolaga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ish esa faqat maktab yoki musiqa muassasasiga emas, balki ota-on, jamiyat va madaniyat muhitiga ham bog‘liq.

O‘zbek xalqining musiqiy merosi nihoyatda boy. Maqomlar, xalq qo‘shiqlari, bastakorlarimiz yaratgan asarlar orqali nafaqat musiqiy zavq, balki tarix, hayot falsafasi, odob va axloq saboqlarini ham olish mumkin. Agar yoshlar bu musiqiy merosni bolalikdan eshitib o‘ssa, ularning estetik didi tabiiy ravishda shakllanadi. Shunday insonlar jamiyatda har bir narsaga e’tiborli bo‘ladi, go‘zallikni qadrlaydi, xunuklikka befarq qaray olmaydi.

Xulosa. Hozirgi zamonda texnologiyalar hayotimizga chuqur kirib kelgan. Telefonlar, kompyuterlar orqali musiqa tinglash osonlashgan. Lekin ayni paytda sifatli, ma’noli va estetik jihatdan boy musiqani tanlash qobiliyati har kimda ham rivojlanmagan.

¹ Abdulla Sher, Bahodir Husanov „Estetika“ Toshkent 2010

Shuning uchun, yoshlarni har qanday tovush emas, balki qalbga yetib boradigan, ruhiy yuksalishga olib keladigan musiqani ajrata olishga o‘rgatish lozim.

Bu borada o‘qituvchilar, san’atkorlar va madaniyat xodimlari oldida katta mas’uliyat turadi. Har bir konsert, dars yoki madaniy tadbir — yosh ongiga ta’sir qilish imkoniyatidir. Oddiygina dars jarayonida tanlab tinglatilgan musiqa o‘quvchining butun dunyoqarashini o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Shu bois, musiqaning tarbiyaviy kuchini to‘g‘ri yo‘naltirish — nafaqat estetik didni shakllantirish, balki insonning ichki olamini boyitish demakdir. Yosh qalblarda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ularni nozik tuyg‘ular bilan yashashga o‘rgatish uchun musiqadan foydalanish — bu kelajak avlodning ruhiy yetukligiga qo‘yilgan mustahkam poydevordir. Har bir ota-onas, har bir ustoz, san’atga daxldor har bir inson buni anglab, mas’uliyat bilan yondashsa, jamiyatda ma’naviy boy, estetik sezgir, barkamol avlod shakllanadi. Axir, qalbda musiqani his qila olgan inson hech qachon befarq, loqayd bo‘lib yashay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdulla Sher, Bahodir Husanov „Estetika“ Toshkent 2010
2. Dilorom Tursunaliyeva „Musiqiy-estetik tarbiyada musiqani idrok qilish“ Namangan
3. Djalalova Nigora Xusanovna „Estetik tafakkur, musiqa madaniyatidagi konsepsiylar“ Farg’ona.